

Xodimlarimizning yangi g'alabalari

2024 20 May

18-19 may kunlari Samarqand shahrida "World Triathlon Cup Samarkand-2024" bo'lib o'tdi, unda Uzbekistan Airways muhandis-inspektori Rajabov Alisher Ulug'bekovich 50-54 yoshdagi ishtirokchilar kategoriyasida uchinchi o'rinni egalladi!


Musobaqalar standart olimpiya masofasida o'tkazildi — 1500 m suzish, 40 km velopoyga, 10 km yugurish.

Shuni ta'kidlash kerakki, Samarqanddagi Jahon Kubogi doirasida matbuot anjumani o'tkazildi, unda O'zbekiston Respublikasi Sport vaziri Adham Ikramov Prezidentimizning sportga katta e'tibori tufayli oxirgi yillarda barcha yo'nalishlar, xususan triatlon rivojlanib, yangi cho'qqilarni zabt etayotganini, milliy jamoa uchun barcha zarur sharoitlar yaratilayotganini, bu yo'nalish aholisi o'rtasida ommalashayotganini ta'kidladi. O'z navbatida, xalqaro ekspertlar, O'zbekiston triatlon federatsiyasi yaqinda tashkil etilganiga qaramasdan, uning sezilarli o'sishini alohida ta'kidladilar.

Uzbekistan Airways sovrindori Alisher Rajabov - harakat bu hayot ekanligini va muntazam sport bilan shug'ullanish organizmni tetik tutib, shijoatli bo'lish hamda o'z ishiga jon-jahdi bilan kirishish imkonini berishini ta'kidlab o'tdi.

Sport bilan shug'ullaning, sog'lom bo'ling va yangi cho'qqilarni zabt eting!

SUV RESURLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH



Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatining aholisi asosan, boshqicha-bosqich Respublikaning barcha hududlarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida suvni tejaydigan texnologiyalarni jori qilish uchun kreditlar 10 foiz stavkada (foiz stavkalarini hisobiga) ajratilishi taʼminlanadi.

Atmosfera zararli tashilarni muqobil ravishda xalqaro "karbon markazi" koʻlami mahsulotlari yetishtiruvchilar yashil maydonlarni tashkil qilish xarajalarini grant mablagʻlari hisobidan kompensatsiya qilyapsin.

UZBEKISTON STATE AIR 2030

